# Uzbekistan Airways Pekin Dasin (PKX) aeroportiga oʻtmoqda

**2026 23 Fevral**

30-martdan, ya’ni bahorgi-yozgi mavsum boshlanishidan e’tiboran, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Pekin-Shoudu xalqaro aeroporti (PEK) oʻrniga Pekin Dasin (PKX) xalqaro aeroportiga parvozlarni amalga oshira boshlaydi.

Yoʻlovchilardan safarni rejalashtirishda ushbu oʻzgarishni inobatga olishlarini hamda uchib ketish va uchib kelish terminali haqidagi ma’lumotlarni oldindan tekshirib koʻrishlarini soʻraymiz.

Toshkentdan Pekinga parvozlar dushanba va payshanba kunlari amalga oshiriladi, keyinchalik parvozlar soni oshiriladi. Parvozlarning jadvali va chiptalarni booking.uzairways.com  saytidan hamda mobil ilovadan xarid qilishingiz mumkin.